

“Vatan mehri —ijtimoiy tashabbuslar” tanlovi

KONSEPSIYASI

“Vatan mehri — ijtimoiy tashabbuslar” respublika miqyosidagi ijtimoiy volontyorlik tanlovi (kelgusida — Tanlov)

1.1. Dolzarbligi

Mahallalarda kundalik hayotda uchraydigan kichik, ammo muhim ijtimoiy muammolar (yolg‘iz qariyalarga g‘amxo‘rlik, hovli-joy tozaligi, bolalar bilan ishlash, ekologik tashabbuslar, kam ta‘minlangan oilalarga yordam va boshqalar) ko‘pincha markazlashgan dasturlar e‘tiboridan chetda qoladi. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, volontyorlik harakatini ommalashtirish va yoshlarni ijtimoiy mas‘uliyatli faoliyatga jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

1.2. Tashkilotchilar

- Ijtimoiy himoya milliy agentligi
- Yoshlar ishlari agentligi
- O‘zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi (UVA)

1.3. Tanlovning maqsadi

Fuqarolarni, xususan yoshlarni, o‘z mahallasidagi ijtimoiy muammolarni mustaqil tashabbus asosida aniqlash va hal qilishga undash, eng faol va samarali volontyorlarni ommaviy ravishda tan olish va rag‘batlantirish.

1.4. Tanlovning vazifalari

- Volontyorlarning shaxsiy tashabbuskorligini oshirish;
- Ijtimoiy loyihalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali ochiq va shaffof yoritish madaniyatini shakllantirish;
- Eng yaxshi amaliyotlarni to‘plash va kelgusida boshqa hududlarda tarqatish uchun “loyihalar banki”ni shakllantirish;
- Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

1.5. Tanlov toifalari

Tanlov ikki toifada olib boriladi:

A toifa — «Amaliyotchi volontyor» (20 nafar g‘olib).

Ishtirokchi mahallasida real ijtimoiy loyihani 30 kun davomida amalga oshiradi va bu jarayonni har kuni Instagram‘da (Post yoki Reels) yoritib boradi. G‘oliblar ijro sifati, ijtimoiy tarmoqdagi faollik ko‘rsatkichlari va komissiya bahosi asosida aniqlanadi.

B toifa — «Eng yaxshi g‘oya» (30 nafar rag‘batlantiriladigan ishtirokchi).

Ishtirokchi mahalladagi muammoni va uni hal qilish yo‘lini tavsiflovchi loyiha konsepsiyasini (ariza shaklida) taqdim etadi. Ushbu toifada loyihani amalda ijro etish va kundalik monitoring talab qilinmaydi — komissiya faqat taqdim etilgan g‘oyaning dolzarbligi, ijodkorligi va amalga oshirilishi mumkinligini baholaydi. Tanlangan g‘oyalar kelgusida qo‘llab-quvvatlash uchun tashkilotchilarning loyihalar bankiga kiritiladi.

1.6. Ijtimoiy tarmoq orqali yoritish talablari (A toifa uchun)

- Heshteglar: #ijtimoiyvolontyorlar2026, #mahalladabirkun

- Belgilanadigan sahifalar: @ijtimoiyhimoya_agentligi, @uva.uz, @yoshlaragentligi, @ijtimoiy_volontyorlar

1.7. Kutilayotgan natijalar

- 20 nafar amaliyotchi volontyorning real ijtimoiy loyihalari yakunlangan va ommaga yoritilgan bo'ladi;

- 30 ta salohiyatli loyiha g'oyasi ro'yxatga olinib, kelgusi qo'llab-quvvatlash uchun tayyor bo'ladi;

- Volontyorlik harakati ijtimoiy tarmoqlarda kengroq yoritiladi va yangi ishtirokchilarni jalb etadi.

“Vatan mehri — ijtimoiy tashabbuslar” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom “Vatan mehri — ijtimoiy tashabbuslar” tanlovini (kelgusida — Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Tanlov tashkilotchilari: Ijtimoiy himoya agentligi, Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi (kelgusida — Tashkilotchilar).

1.3. Tanlov Tashkilotchilar tomonidan tuzilgan Komissiya (kelgusida — Komissiya) tomonidan boshqariladi.

1.4. Tanlovda Respublikaning barcha hududlaridan fuqarolar yakka tartibda ishtirok etishi mumkin.

2. Ishtirok etish tartibi

2.1. Ishtirok etish uchun ishtirokchi belgilangan onlayn shakl (forma) orqali ariza topshiradi.

2.2. Ariza topshirishda ishtirokchi ishtirok etmoqchi bo‘lgan toifani (A yoki B) tanlaydi.

2.3. A toifa bo‘yicha ariza topshirgan ishtirokchi o‘z mahallasida amalga oshirmoqchi bo‘lgan loyihaning qisqacha tavsifini kiritadi.

2.4. B toifa bo‘yicha ariza topshirgan ishtirokchi loyiha konsepsiyasini (muammo, yechim, kutilayotgan natija) to‘liq shaklda taqdim etadi.

3. Muddatlar

3.1. Arizalar qabul qilish muddati: 15-avgust 2026.

3.2. A toifa ishtirokchilari uchun loyihani amalga oshirish va Instagram’da yoritish davri: ariza tasdiqlangan kundan boshlab 15-avgust 2026 sanasigacha.

3.3. Agar ishtirokchiga to‘liq 30 kunlik davr yetmasa, ijro muddati Komissiya tomonidan qisqartirilgan (kamida 10 kunlik) format sifatida qabul qilinishi mumkin; bu holat ariza shaklida alohida ko‘rsatiladi.

3.4. B toifa ishtirokchilari uchun amalga oshirish muddati talab qilinmaydi — ariza topshirilgan kundan e‘tiboran g‘oya baholash uchun qabul qilingan hisoblanadi.

4. Baholash va g‘oliblarni aniqlash

4.1. A toifa bo‘yicha 20 nafar g‘olib quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi: loyihaning ijtimoiy ahamiyati va sifati, Instagram’dagi faollik (ko‘rishlar, layk, izoh soni), kundalik yoritish tartibiga rioya qilish, Komissiyaning yakuniy bahosi.

4.2. B toifa bo‘yicha 30 nafar rag‘batlantiriladigan ishtirokchi faqat taqdim etilgan konsepsiyaning sifati (dolzarbligi, ijodkorligi, amalga oshirilishi mumkinligi) asosida Komissiya tomonidan tanlanadi.

4.3. Baholash IV bo‘limda keltirilgan reyting jadvali asosida olib boriladi.

4.4. Komissiya qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko‘rib chiqilmaydi.

5. Rag‘batlantirish

5.1. A toifadagi 20 nafar g‘olibga Tashkilotchilar tomonidan belgilangan qimmatbaho sovg‘alar taqdim etiladi.

5.2. B toifadagi 30 nafar ishtirokchining g'oyalari rasman e'tirof etiladi va kelgusi qo'llab-quvvatlash (mentorlik, amaliy yordam) uchun Tashkilotchilarning loyihalar ro'yxatiga kiritiladi.

5.3. Barcha shartlarni to'liq bajargan A toifa ishtirokchilariga tashakkurnoma taqdim etiladi.

6. Komissiya

6.1. Komissiya har bir Tashkilotchidan teng miqdorda vakil kiritilgan holda shakllantiriladi.

6.2. Komissiya qarorlari ochiq muhokama va ovoz berish asosida qabul qilinadi.

6.3. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda (masalan, Komissiya a'zosining qarindoshi ishtirok etayotgan bo'lsa), tegishli a'zo ovoz berishda ishtirok etmaydi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Tashkilotchilarning birgalikdagi qaroriga asosan kiritiladi.

7.2. Nizomda ko'rsatilmagan masalalar Tashkilotchilar tomonidan alohida kelishilgan holda hal qilinadi.

BAHOLASH MEZONLARI VA REYTING JADVALI

A toifa — «Amaliyotchi volontyor» (jami 100 ball)

Mezon	Tavsifi	Maksimal ball	Ulush
Loyihaning ijtimoiy ahamiyati	Muammoning dolzarbligi va loyihaning mahalla uchun foydaliligi	30	30%
Ijro sifati va izchilligi	Kundalik postlarning to'liqligi, jarayonning haqiqiyliigi	25	25%
Ijodkorlik va yondashuv	Yechimning o'ziga xosligi, resurslardan oqilona foydalanish	15	15%
Instagram faolligi	Ko'rishlar, layk va kommentlar soni (nisbiy ko'rsatkich)	20	20%
Qoidalarga rioya qilish	Heshteg va sahifalarni belgilash talablariga rioya	10	10%

B toifa — «Eng yaxshi g'oya» (jami 100 ball)

Mezon	Tavsifi	Maksimal ball	Ulush
Muammoning dolzarbligi	Tanlangan muammoning mahalla uchun real ahamiyati	35	35%
Yechimning ijodkorligi	Taklif etilgan yondashuvning yangiligi va originalligi	30	30%
Amalga oshirilishi mumkinligi	G'oyaning real resurslar bilan bajarilishi imkoniyati	25	25%
Bayonning aniqligi	Ariza matnining tushunarli va tizimli yozilganligi	10	10%

Reyting jadvali shabloni

№	F.I.Sh.	Toifa	Komissiya bahosi	IG ko'rsatkichi	Yakuniy ball	Natija
1						
2						
3						

KUNDALIK HISOBOT (MONITORING) SHABLONI — A toifa uchun

Ushbu shablon Tashkilotchilar tomonidan A toifa ishtirokchilarining Instagram'dagi kundalik faoliyatini kuzatib borish uchun ishlatiladi.

Kun	Sana	Post/Reels havolasi	Heshteglar mavjudmi (ha/yo'q)	Sahifalar belgilanganmi (ha/yo'q)	Ko'rishlar	Layk	Izoh
1							
2							
3							
4							
5							

(Jadval har bir ishtirokchi uchun to'liq davr — 10 dan 30 kungacha — bo'yicha davom ettiriladi.)